O‘ZBEKISTON VA YI YETAKCHILARI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR YANGI, STRATEGIK DARAJAGA KO‘TARILGANINI OLQISHLADILAR

Bryusseldagi Yevropa kengashi bosh qarorgohi – “Yevropa” binosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

СОЗДАНИЕ ЕДИНОЙ ЭЛЕКТРОННОЙ СИСТЕМЫ ОБМЕНА ИНФОРМАЦИЕЙ МЕЖДУ МИНИСТЕРСТВАМИ ЮСТИЦИИ ОБСУДИЛИ В ИСПОЛНИТЕЛЬНОМ КОМИТЕТЕ СНГ

Продолжение → 9 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

#86 (3280) 28.10.2025

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

O‘zbekiston Prezidenti
Belgiyaliklar Qiroli bilan uchrashdi



Bryussel shahriga rasmiy tashrif doirasida Laken saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belgiyaliklar Qiroli Filipp bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Qirol Filipp O‘zbekiston yetakchisining YI rahbariyati bilan muzokaralarining yakunlarini yuksak baholab, mamlakatimiz yetakchisini Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi tarixiy bitim imzolangani bilan samimiy tabrikladi.

O‘zbekiston – Belgiya munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Vazirlar darajasida faol muloqotlar yo‘lga qo‘yilgan, siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o‘tkazilmoqda, ikki mamlakat parlamentlarida do‘stlik guruhlari tashkil etilgan.

Madaniy-gumanitar hamkorlik mustahkamlanmoqda. Toshkent va Kortreyk, Samarqand va Lyej shaharlari o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatildi. Kortreykda buyuk alloma bobomiz Abu Ali ibn Sinoning byusti ochildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, Belgiya kompaniyalari O‘zbekistonda, xususan, to‘qimachilik, logistika va xizmat ko‘rsatish sohalarida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. O‘tgan yili Toshkentda Benilyuks mamlakatlarining savdo palatasi ochildi.

Suhbat chog‘ida Belgiya kompaniyalari vakillarining O‘zbekistonga tashriflarini tashkil etish, shuningdek, madaniy tadbirlarni o‘zaro o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Qirol Filippni tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.





Jarayon

O‘zbekiston — biznes uchun ochiq mamlakat



→ 3-betda

Международное сотрудничество

«Silk Road Highlights Tour» Прага



→ 9 стр.

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

O‘zbekiston va YI yetakchilari ikki tomonlama munosabatlar yangi, strategik darajaga ko‘tarilganini olqishladilar

Bryusseldagi Yevropa kengashi bosh qarorgohi – “Yevropa” binosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ko‘p qirrali O‘zbekiston – Yevropa hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar bugun imzolangan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi tarixiy bitimni yuqori baholadilar. Ushbu keng qamrovli hujjat O‘zbekiston bilan YI hamkorligining nafaqat huquqiy asoslarni kengaytirishi, balki yangi kun tartibini shakllantirishi ta’kidlandi.

Shuningdek, bitim birlashmaga a’zo davlatlar bilan, eng avvalo, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, iqlim, yuqori texnologiyalar va madaniy-gumanitar hamkorlik sohalaridagi aloqalarga kuchli sur’at bag‘ishlaydi.

Tomonlar O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zoligi bo‘yicha YI bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlanganini ham olqishladilar.

Barcha darajalarda faol, sermahsul muloqot va almashinuvlar amalga oshirilayotgani katta mamnuniyat bilan ta’kidlandi. Tashrif arafasida O‘zbekiston delegatsiyasi Yevropa Ittifoqining “Global darvoza” ikkinchi forumida ishtirok etdi. Yaqinda Hamkorlik kengashi hamda Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar bo‘yicha kichik qo‘mita yig‘ilishlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Kecha yirik qo‘shma biznes forumi o‘tkazilgan bo‘lsa, bugun Yevropaning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Ular natijasida energetika, kimyo, muhim minerallar, logistika, to‘qimachilik va farmatsevtika tarmoqlarida umumiy qiymati 10 milliard yevrodan ziyod bo‘lgan yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Bu Yevropa kompaniyalari ishtirokidagi umumiy qiymati 40 milliard yevrodan ziyod bo‘lgan hozirgi loyihalar portfeliga salmoqli qo‘shimchadir.







Sheriklikning yuqori sur’atini saqlab qolish uchun hamkorlikning institutsional mexanizmlarini yanada mustahkamlash, investitsiyalar, muhim minerallar, energetika, transport, fan va ta’lim sohalarida yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi. Ishbilarmonlik va gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun viza tartibotlarini soddalashtirish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar xalqaro kun tartibi va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Uchrashuv yakunida Qo‘shma bayonot qabul qilindi.

O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi

Moskva viloyatida O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Rossiya delegatsiyasiga Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov, O‘zbekiston tomoniga esa O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xodjayev rahbarlik qildi.



Forum ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilikning yuqori darajasini yana bir bor tasdiqladi. Bugungi kunda O‘zbekistonning 14 ta viloyati Rossiya Federatsiyasining 50 dan ortiq subyekti bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, qo‘shma loyihalar portfeli 6,2 milliard AQSh dollaridan oshgan.

Yig‘ilishda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zaro aloqalar hamda madaniy-gumanitar sheriklikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Ayniqsa, elektron savdo, qo‘shma sanoat korxonalari tashkil etish, ulgurji-taqsimot markazlarini rivojlantirish, shuningdek, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun dual ta’lim tizimini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Yig‘ilish yakunida Rossiya va O‘zbekiston hududlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar sohalarni qamrab olgan 30 dan ortiq hujjatlar imzolandi. Tadbir amaliy hududlararo hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.

Zamira Tojiyeva.

O‘zbekiston — biznes uchun ochiq mamlakat

Poytaxtimizda Milliy investitsiya jamg‘armasi tomonidan ilk bor o‘tkazilgan Investorlar kunida xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish imkoniyatlari namoyish etildi.

Ushbu tadbirda mahalliy, mintaqaviy va xalqaro investitsiya jamg‘armalari, banklar hamda moliyaviy institutlar vakillari ishtirok etishdi. Jami boshqaruvidagi aktivlar hajmi 1 trillion AQSH dollaridan ortiqni tashkil etadigan 67 tadan ziyod mahalliy va xorijiy investitsiya kompaniyalaridan 200 dan ko‘p vakil qatnashdi. Mehmonlarning Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyoning yirik moliya markazlaridan tashrif buyurgani Milliy investitsiya jamg‘armasining O‘zbekistonda va xorijda global institutsional investorlar orasida yuqori qiziqish uyg‘ota olganini ko‘rsatdi.

Tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov so‘zga chiqib, dunyodagi faol rivojlanayotgan bozorlardan biri bo‘lgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, investitsiya muhiti, sarmoyadorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, strategik tarmoqlardagi mavjud investitsiya imkoniyatlari haqidagi asosiy ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tdi.

Markaziy bank boshqaruvi raisi Timur Ishmetov joriy makroiqtisodiy sharoitlar, bank sektoridagi so‘nggi o‘zgarishlar yuzasidan ma’lumot berdi. Jumladan, bank sektori transformatsiyasi bo‘yicha ta’kidlaganidek, hozirda banklarning jami aktivlari qariyb 72 milliard dollarga yetdi. Kapital yetarliligi koeffitsiyenti 18 foizni tashkil etadi, bu me’yoriy talablardan ancha yuqoridir. Xususiy sektorga berilgan kreditlar umumiy kreditlarning 86 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Kreditlar asosan kichik va o‘rta biznes, ipoteka va qishloq xo‘jaligida o‘sishda davom etmoqda. Shu bilan birga, dollarlashuv darajasining pasayishi sezilarli yaxshilanmoqda. Bir necha yil oldin barcha kreditlarning 50 foizdan ortig‘i xorijiy valyutada berilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich 30 foizgacha kamaydi va xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi taxminan 20 foizgacha pasaydi. Aktivlar sifati ham barqaror bo‘lib qolmoqda, muammoli kreditlar taxminan jami kredit portfelining 3,7 foizini tashkil etmoqda. Eng muhimi, banklar potensial risklarni qoplash uchun yetarli miqdorda, 3,4 milliard dollardan ortiq kapital buferlariga ega. Moliyaviy sektordagi islohotlarning asosiy bosqichi 2024–2025 yillarda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki tomonidan birgalikda o‘tkazilgan birinchi Moliyaviy sektorni baholash dasturini yakunlash bo‘ldi. Bugungi kunda O‘zbekistonning moliyaviy tizimi yanada mustahkam, shaffof va prognoz qilinadigan muhitga o‘tayotgan bo‘lib, bu investorlar ishonishi uchun muhim bo‘lgan muhitdir. Bundan tashqari, Basel-3 me’yorlarining to‘liq joriy etilishi 2028-yil oxiriga qadar yakunlanishi rejalashtirilgan va bu O‘zbekistonning moliyaviy tizimiga investorlar ishonchini mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ladi. Shuningdek, bank sektori uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish bo‘yicha ishlar ham ilgari surilmoqda. 2027-yil oxiriga qadar to‘liq amalga oshirilishi kutilayotgan ushbu islohot moliyaviy hisobotlarning sifati, shaffofligi va taqqoslanishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xalqaro standartlarga o‘tish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi va O‘zbekistonning moliyaviy tizimini global hisob va oshkor qilish standartlariga moslashtiradi. Shu bilan birga nobank moliyaviy sektoriga yangi





mikromoliya banklari kirib kelmoqda. Markaziy bank "Hozir sotib ol, keyinroq to‘la" segmentini tartibga solishga tayyorlanmoqda. Yaqin orada Islom moliyasi to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilinishi kutilmoqda, bu islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yuritishni istagan Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalardagi investorlar uchun yangi imkoniyat yaratadi. Markaziy bank barcha investorlar va moliyaviy institutlar bilan ochiq va konstruktiv muloqotga tayyor.

Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Ilhom Umrzoqov o‘z chiqishida ta’kidlaganidek, O‘zbekiston hukumati bank sektorini xususiylashtirishni mamlakat iqtisodiy transformatsiyasi kun tartibining asosiy





ustunlaridan biri deb hisoblaydi. 2019-yilda islohotlar dasturi boshlanganida bank aktivlarining 80 foizdan ortig‘i davlatga tegishli edi. Hozirda bu ko‘rsatkich 65 foizni tashkil etadi. Kelgusi maqsad shunchaki aktivlarni sotish emas, balki butun sohani raqobatbardosh, shaffof va investorlar boshchiligidagi tizimga aylantirishdir. Bugungacha “Ipoteka bank”dagi nazorat paketi “OTP Grup”ga va “Coca-Cola O‘zbekiston” kompaniyasi “Coca-Cola İçecek”ga sotilishi ilk bor amalga oshirilgan muhim bitimlar bo‘ldi. Bu xalqaro investorlarning ishonchini yaqqol namoyon etdi. Shu bilan birga, “Sanoatqurilishbank”, “Asakabank” va “Turonbank” kabi yirik davlat banklari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda chuqur xususiylashtirishga tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tdi. Umuman, muvaffaqiyatli xususiylashtirish savdodan ancha oldin boshlanadi, ya’ni kuchli korporativ boshqaruv, zamonaviy tavakkalchilikni boshqarish tizimi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to‘liq moslik talab etiladi.

Shuningdek, shaffoflik va investorlar bilan ochiq muloqot ishonchni shakllantirish uchun zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, xususiylashtirish haqiqiy institutsional o‘zgarishlarga asoslanishi kerak, shunda egalik o‘zgargach ham transformatsiya jarayoni davom etadi. Vazir o‘rinbosarining qayd etishicha, yaqin yillardagi o‘sishning uchta asosiy manbaini ko‘rish mumkin. Birinchidan, xususiy investitsiyalar va xususiylashtirish. Ya’ni davlatga qarashli banklar va korxonalar tobora ko‘proq xususiylashtirilgani sari, tizimga yangi kapital, texnologiyalar va boshqaruv tajribasi kirib kelmoqda. Bu nafaqat banklarning o‘zini mustahkamlab, balki real sektor — kichik va o‘rta biznes, eksportyorlar hamda innovatsion sohalarga ko‘proq kredit yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, raqamlashtirish, raqamli to‘lovlar, “open banking” tashabbuslari va fintex kompaniyalari bilan hamkorlik tufayli moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati barqaror ravishda kengayib boradi. Uchinchidan, “yashil” va barqaror moliya bank sektori, qayta tiklanuvchi energiya, energiyani tejovchi hamda iqlim o‘zgarishiga moslashuvchan loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadbirda Franklin Templeton kompaniyasi bosh investitsion direktori Manraj Sekxon o‘z ma’ruzasida qayd etganidek, kompaniya ko‘prik vazifasini o‘tab, global va mahalliy imkoniyatlarni birlashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekistondagi faoliyat joriy yil avvalida boshlangan bo‘lib, may oyidan e’tiboran muayyan natijalarga erishildi. Bu yerda mahalliy idora ochildi, yuqori malakali mutaxassislar jamlandi. Bir qator korxona va kompaniyalar bilan ishlashga kirishilib, transformatsiya yo‘li aniqlab olindi. Mahalliy va xalqaro IPO bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi kotibiyati rahbari Aziz G‘ofurovning jurnalistlarga intervyu berib urg‘ulashicha, so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasining yaqqol isboti ko‘plab xorijiy investitsiya fondlari va investorlar tomonidan yurtimizga katta qiziqish bildirayotganida ko‘rinmoqda. Xususan, “Franklin Templeton” kompaniyasining ish boshlashi boshqa xorijiy kompaniyalarda mamlakatimizdagi investitsiya imkoniyatlariga nisbatan ishonchni oshirmoqda. Hozirda ishlayotgan investorlarning har biri yurtimizga katta miqdorda investitsiya kiritgan, lekin tadbir ishtirokchilarining 90 foizi O‘zbekistonga ilk bor kelgani va katta qiziqish bildirayotgani kelgusida raqobatni kuchaytirishi mumkin. Shu bois faoliyat yuritayotgan investorlar sarmoya portfelini yanada oshirishni maqsad qilmoqda. O‘z navbatida mamlakatimizda ularga kerakli shart-sharoitlarni yaratishga e’tibor kuchaytirilishi kerak bo‘ladi.

BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#86 (3280) 28.10.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Урганч туманлараро иқтисодий судининг 20.10.2025 йил 20 октябрдаги 4-2201-2401/9647-сонли ажримига асосан Урганч туманидаги “Begovot chorva mahsulot” ФХни (СТИР 300521214) тугатишга доир иш юритиш муддати 3 (уч) ойга узайтирилди.

Quyida nomlari keltirilgan korxonalarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan va sud boshqaruvchisi etib Soliyev Damirjon Nurmatovich tayinlangan. Shu munosabat bilan 2025-yil 28-noyabr kuni soat 10.00 da Buxoro viloyati, Buxoro shahar, B.Naqshband ko’chasi, 299-uyda jamiyat kreditorlarining yig’ilishi bo’lib o’tishi rejalashtirilgan.

T/r	Tashkilot nomi	STIR	Ajrim (qaror) raqami va sanasi	Jarayon	Hududi
1	“Binafsha“ MChJ	200852027	2025-yil 17-oktyabr 4-2001-2502/8925	Kuzatuv	Buxoro shahri
2	“JD-D servis” MChJ	309767312	2025-yil 20-oktyabr 4-2001-2505/8961	Kuzatuv	Romitan tuman
3	“Agro Farm Bio Tech” MChJ	309839206	2025-yil 6-oktyabr 4-2001-2502/8333	Tugatish	Buxoro shahar
4	“Amir trans servis” MChJ	300552437	2025-yil 17-oktyabr 4-2001-2502/8420	Tugatish	Buxoro shahar

Yig‘ilishda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

1. Ajrim (hal qiluv qarori) bilan tanishtirish.
2. Kreditorlar reestrini, kalendar ish rejasini tasdiqlash.
3. Qarzdorga nisbatan bankrotlikning navbatdagi taomilini qo‘llash.
4. Sud boshqaruvchisining ish haqini (shtat birligi birligi va smeta xarajatlari) tasdiqlash.
5. Auditorlik va baholovchi tashkilotlar nomzodlari muhokamasi.
6. Boshqa masalalar.

Kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bilan Buxoro shahar, Hamza ko’chasi, 15-uyda tanishib chiqish mumkin. Kreditorlar yig‘ilishiga 30 daqiqa qolganda ro‘yxatga olish boshlanadi. Kreditorlar yig‘ilishida vakillar ishonch xatlari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan keyin ishtirok etadilar. Kreditorlar qarzdorga bo‘lgan talablarini yozma shaklda kreditorlik qarzini tasdiqlovchi barcha hujjatlarni ilova qilgan holda e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida muvaqqat boshqaruvchiga taqdim qilishlari mumkin.

Tugatish jarayonidagi qarzdorning dumaloq muhri, to‘rtburchak shtampi e’lon chiqqan kundan boshlab 10 kunlik muddatda tugatish boshqaruvchisiga topshirilmagan taqdirda, bekor qilingan hisoblanadi. Qarzdorning qarzini to‘lash istagini bildirgan shaxslar tugatish boshqaruvchisiga murojaat qilishlari mumkin.

Фарғона туманлараро иқтисодий суднинг 2025 йил 6 октябрдаги 4-1501-2502/19734-сонли ажримига асосан Фарғона шаҳрида рўйхатдан ўтган “Buloq-AS” фермер хўжалигига (СТИР 204238350) нисбатан кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Ниёзов Ахмаджон Акбаралиевич тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 21 ноябрь куни соат 11.00 да Фарғона шаҳри, Муҳандислик кўчаси, 17/1-уйда ўтказилади. Кредиторлар ўз талабларини ушбу манзилга ёки +99891-114-14-70 телефон орқали билдиришлари мумкин. Суд мажлисининг санаси, вақти ва жойи ҳақида қўшимча маълумот берилади.

Ishtixon tumanlararo iqtisodiy sudining 2025-yil 16-oktabrdagi 4-1403-2501/5004, 4-1403-2501/5003, 4-1403-2501/5002-sonli ajrimlariga asosan Ishtixon tumanidagi “Busines is petrol” MChJ (STIR 205611200), “Shoxrux petrol gaz” MChJ (STIR 206743102), “Gazoil servis metan” MChJga (STIR 305674503) nisbatan kuzatuv joriy qilingan va muvaqqat boshqaruvchi etib Raxmonov Odil Askarovich tayinlangan.

Kreditorlar o‘z talablari bilan bir oy muddat ichida Samarqand shahri, M.Ulug‘bek ko‘chasi, 96-uyga murojaat qilishlari mumkin. Kreditorlar yig‘ilishi 2025-yil 19-noyabr kuni soat 10.00 da Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi binosida o‘tkaziladi.

Yig‘ilishda kreditorlar ishonchnoma va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan qatnashishi lozim.

Murojaat uchun tel: +99897-449-09-55.

Зангиота туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 октябрдаги ажримига асосан “Butikbooks” МЧЖга (СТИР 308246312) нисбатан 4-1101-2503/16420-сонли иш қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилган. Муваққат суд бошқарувчиси этиб Пармонов Садиқ тайинланган.

Қарздор “Butikbooks” МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 ноябрь куни соат 11.00 га белгиланган.

Кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
3. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
4. Жамиятга нисбатан банкротликнинг кейинги таомилини қўллаш ва суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш.
5. Муваққат бошқарувчи иш ҳақини тасдиқлаш.
6. Бошқа масалалар.

Йиғилиш иштирокчилари шахсини тасдиқловчи ҳужжат тақдим қилиши, вакил қатнашганда ишончнома бўлиши шарт.

Кредиторлар 2025 йил 26 ноябрь куни соат 10.30 да рўйхатга олинади.

Манзил: Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, Арнасой кўчаси, 3-уй.

Агар 2025 йил 26 ноябрдаги кредиторлар йиғилишида кворум бўлмаса, такрорий йиғилиш 2025 йил 4 декабрь куни ушбу манзилда соат 10.30 да бўлиб ўтиши белгиланади.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб Тошкент шаҳри, М.Улуғбек тумани, Муҳаммад Юсуф кўчаси, 56-уй, 2-қават. Эл.манзил: sud.boshqaruvi76@mail.ru

---

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишлар бўйича 2025 йил 13 октябрдаги 4-1001-2518/113931-сонли ажрими билан “Marmarstone” МЧЖга (СТИР 307671957) кузатув жорий қилинган ва 2025 йил 27 майдаги 4-1001-2516/32848-сонли ажрими билан “Lysine agency” МЧЖга (СТИР 305808484) нисбатан тугатишга доир иш юритиш бошланган. Суд бошқарувчиси этиб Жўраева Манзура Насриддиновна тайинланган.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 28 ноябрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар, И.Каримов кўчаси, 55-уй, 307-хонада бўлиб ўтади.

Кредиторларнинг биринчи йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш ҳамда иштирокчиларни рўйхатга олиш 2025 йил 28 ноябрь куни соат 10.00 дан 11.00 гача амалга оширилади.

Йиғилишда кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома, қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар ва солиштирма далолатнома билан қатнашишлари шарт.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 октябрдаги 4-1001-2504/116269-сонли ажримига асосан “Maybach” МЧЖга (СТИР 306259029) нисбатан кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Н.О.Нарзиев тайинланган.

Даъволар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 28 ноябрь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳар, Алишер Навоий кўчаси, 18-уй (Тошкент шаҳар солиқ бошқармасида) бўлиб ўтиши белгиланган.

Маълумот олиш учун телефон: +99888-146-60-64, электрон манзил: nodirn1984.uz@mail.ru

---

“Future open technology group” акциядорлик жамияти

акциядорлари диққатига!

“Future open technology group” акциядорлик жамияти акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 14 ноябрь куни ўтказилади.

Йиғилиш соат 10.00 да Тошкент шаҳар, Юнусобод тумани, Шаҳрисабз кўчаси, 2-уй манзилидаги жамият маъмурий биносида ўтказилади.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади.

Кун тартиби:

1. Жамият кузатув кенгаши айрим аъзоларининг ваколатларини муддатидан олдин тугатиш ҳамда кузатув кенгаши таркибидан чиқариш.
2. Жамият кузатув кенгашига айрим аъзоларни сайлаш.

Жамият акциядорларининг реестри шакллантириладиган сана – навбатдан ташқари умумий йиғилишни ўтказиш тўғрисида хабардор қилиш учун акциядорлар реестри 2025 йил 24 октябрь ҳолатига ва акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилишида қатнашиш ҳуқуқига эга жамият акциядорларининг реестри 2025 йил 10 ноябрь ҳолатига шакллантирилади.

Акциядорлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат (паспорт), уларнинг вакиллари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган тартибда расмийлаштирилган (жисмоний шахслар учун - нотариус томонидан тасдиқланган, юридик шахслар учун - мазкур юридик шахс томонидан берилган) ишончнома билан келишлари шарт.

Акциядорлар қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳар, Юнусобод тумани, Шаҳрисабз кўчаси, 2-уй манзилида жойлашган маъмурият, электрон почта: hello@opentech.uz, тел.: +99871-200-12-82.

“Future open technology group” акциядорлик жамияти кузатув кенгаши.

Қуйичирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 октябрдаги 4-1103-2501/5731-сонли иш юзасидан қабул қилган ажрими билан Оққўрғон туманидаги “Kozimbek Feruza fayz” фермер хўжалигига (СТИР 305155199) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Суднинг мазкур ажрими билан муваққат бошқарувчи этиб Б.Арифходжаев тайинланган (муваққат бошқарувчи манзили: Жиззах вилояти, Жиззах шаҳри, Қассоблик маҳалласи 5/1-уй, 26-хонадон. Мурожаат учун тел.: +99877-401-30-03).

Қуйичирчиқ туманлараро иқтисодий судининг юқоридаги ажримига асосан суд томонидан қарздорга нисбатан банкротлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқиш юзасидан белгиланган суд муҳокамаси 2025 йил 2 декабрь куни соат 10.30 да Қуйичирчиқ туманлараро иқтисодий суди биносида (манзил: Тошкент вилояти, Қуйичирчиқ тумани, Дўстобод шаҳар, Дўстлик-1 МФЙ, Мустақиллик кўчаси) бўлиб ўтиши белгиланган.

Мазкур қарздор кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 28 ноябрь куни соат 11.00 да (шу куни бўлиб ўтмаган деб ҳисобланса, такрорий йиғилиш 2025 йил 1 декабрь куни соат 11.00 да) Тошкент вилояти, Оққўрғон тумани, Оққўрғон тумани солиқ инспекцияси маъмурий биносида бўлиб ўтади.

Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакиллари шахсини ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, шунингдек йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиши сўралади.

Кун тартибига “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун билан кредиторларнинг биринчи йиғилишида кўриб чиқиш ваколатлари берилган қарорлардан бирини қабул қилиш масаласи киритилган.

Ушбу маълумот эълон қилинган пайтдан эътиборан ўттиз кун ичида кредиторлар ўз талабларини қарздорга тақдим этиши сўралади.

Қўқон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 20 октябрдаги 4-1502-2501/8935-сонли иш юзасидан ҳал қилув қарорига асосан Фарғона вилояти, Қўқон шаҳрида фаолият юритаётган “Mega Classic Oil” МЧЖ (СТИР 303253309) банкрот деб эътироф этилган бўлиб, унга нисбатан тугатишга доир иш юртиш таомили жорий этилган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Акбаров Зафар Фарходович тайинланган.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан эътиборан бир ой давомида қўйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: (индекс: 150700) Фарғона вилояти, Қўқон шаҳри, Чўлпон кўчаси, 43-уй. Телефон: +99890-586-44-77.

Аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотлар тижорат таклифларини тугатиш бошқарувчиси манзилига тақдим этишлари мумкин.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 ва 27 октябрдаги кузатув жорий қилиш ва муваққат бошқарувчини тайинлаш тўғрисидаги ажримларига асосан “Sirdaryo unversal qurilish” МЧЖ (СТИР 302833457) ҳамда “Comfort-shop-business” МЧЖга (СТИР 309922024) нисбатан кузатув жорий қилинган ва муваққат бошқарувчи этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Ғойипов Санжарбек Ботиржонович тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 1 декабрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Ш.Руставели кўчаси, 65-а уйда бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими тўғрисида.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тузиш ва тасдиқлаш тўғрисида.
3. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини танлаш ёки келишув битими тузиш.
4. Бошқа масалалар.

Йиғилиш куни кредиторларни рўйхатга олиш 10.30 да бошланади. Қарздорга нисбатан ҳақдор ёки қарздор корхона, ташкилот ва бошқа субъектларнинг вакиллари ваколатнома асосида солиштирма далолатнома билан йиғилишда қатнашишлари шарт.

Муваққат бошқарувчининг манзили: Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, 6-мавзе, 2-а уй. Мурожаат учун телефон: +99894-433-54-58. Электрон почта: goyipov1982@bk.ru

---

Боёвут туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 октябрдаги 4-1203-2501/4163-сонли ажримига асосан “Koxinur bugalteriya universal” МЧЖ (СТИР 309838706), 2025 йил 15 октябрдаги 4-1203-2501/4165-сонли ажримига биноан “The art of metal manufacture” MChJ (СТИР 309231655), 2025 йил 15 октябрдаги 4-1203-2501/4223-сонли ажримига асосан “Elektiron sovda barakasi 0588” MChJга (СТИР 310968854) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилди.

Кредиторларнинг биринчи умумий йиғилиши 2025 йил 25 ноябрь куни соат 11.00 да Гулистон шаҳри, Ўзбекистон кўчаси, 3-уй, 18-хонада (Бизнес марказ биноси) бўлиб ўтади.

Кун тартиби: муваққат бошқарувчи ҳисоботи, кредиторлар реестрини тасдиқлаш, келгуси таомилни танлаш, бошқарувчи номзоди ва иш ҳақини тасдиқлаш ва бошқа масалалар.

Мурожаат учун манзил: Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 3-мавзе, Ўзбекистон кўчаси 3-уй, тел: +99893-326-18-78. Электрон почта: azizjoneraliev86@gmail.com

Нукус туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 сентябрдаги 4-2301-2502/1912-сонли ажримига асосан "Mir business Nukus" МЧЖга (СТИР 306977623) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва иш судда кўриб чиқилгунига қадар кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи вазифасига суд бошқарувчиси Эгамберганов Хурмат Эгамберганович тайинланган. Суднинг ажрими олинган кундан кузатув жараёни бошланди. Суд мажлиси 2025 йил 11 ноябрь куни соат 9.45 га белгиланган.

Қарздор жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 5 ноябрь куни соат 11.00 да бошланади. Кредиторлар йиғилиши Нукус шаҳри, Амир Темур кўчаси, 112-а уйда, 107-хонада ўтказилиши белгиланган. Кредиторлар вакилларини рўйхатга олиш 2025 йил 5 ноябрь куни соат 10.45 да бошланади.

Вакил тегишли ишончнома, шахсини тасдиқловчи ва талабини тасдиқловчи ҳужжатлари билан келиши лозим.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг кузатув жараёни натижалари бўйича ҳисоботи.
2. "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 26-моддасига асосан суд бошқарувчисига тўланадиган ҳақни (қўшимча ҳақни) белгилаб тасдиқлаш, тўлаш манбаини тасдиқлаш ҳамда кредиторлар талаблари реестрини тузиш.
3. Даъвогар-кредиторнинг талаблари қоплаб берилмаса ёки келишув битими тузишга эришилмаса, қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
4. Суд бошқарувчиси (тугатиш бошқарувчиси) номзодини тасдиқлаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаб тасдиқлаш.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси Х.Эгамберганов телефон рақами: +99897-791-77-22.

Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 сентябрдаги 4-1104-2502/6997-сонли ажрими билан "Muxammadaziz-Madina tomorqa xizmati" МЧЖга (СТИР 307357998) нисбатан кузатув таомили жорий қилинган ва 2025 йил 6 октябрдаги ажрими билан муваққат бошқарувчи этиб С.Парманов тайинланган.

Қарздор "Muxammadaziz-Madina tomorqa xizmati" МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 10 ноябрь куни соат 11.00 га белгиланган.

Кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
3. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
4. Жамиятга нисбатан банкротликнинг кейинги таомилини қўллаш ва суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш.
5. Муваққат бошқарувчи иш ҳақини тасдиқлаш.
6. Бошқа масалалар.

Йиғилиш иштирокчилари шахсини тасдиқловчи ҳужжат тақдим қилиши, вакил қатнашганда ишончнома бўлиши шарт.

Кредиторлар 2025 йил 10 ноябрь куни соат 10.30 да рўйхатга олинади.

Манзил: Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, Арнасой кўчаси, 3-уй.

Агар 2025 йил 10 ноябрдаги кредиторлар йиғилишида кворум бўлмаса, такрорий йиғилиш 2025 йил 25 ноябрь куни ушбу манзилда соат 10.30 да бўлиб ўтиши белгиланади.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб Тошкент шаҳри, М.Улуғбек тумани, Муҳаммад Юсуф кўчаси, 56-уй, 2-қаватда қабул қилинади. Ҳужжатлар билан танишиш ва маълумот олиш учун телефонлар: +99899-559-55-76, +99894-572-76-05, телеграм: +99899-559-55-76, эл.манзил: sud.boshqaruvi76@mail.ru, SUDBOSHQARUVCHI.A@exat.uz

---

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхоналарга нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Талипов Мухиддин Нуриддин ўғли тайинланган.

Мазкур қарздор корхоналар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 1 декабрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Йиғилишда "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 87,89-моддаларида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади.

Тел: +99899-846-62-02.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Рўйхатга олиш вақти (соат)	Кредиторлар йиғилишининг вақти (соат)
			санаси	рақами		
1	305689444	"Muzaffar pharm" МЧЖ	21.10.2025 й.	4-1106-2501/5010	10.30	11.00
2	310333671	"JS Construction of small roads" МЧЖ	20.10.2025 й.	4-1001-2508/105839	11.30	12.00
3	306144060	"Brand booster" МЧЖ	21.10.2025 й.	4-1001-2504/113262	14.30	15.00

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 октябрдаги 4-1001-2508/107079-сонли ажримига асосан "Nurafshon qurilish lyuks" МЧЖга (СТИР 303492257) нисбатан кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Н.О.Нарзиев тайинланган.

Даъволар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 ноябрь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳри, Алишер Навоий кўчаси, 18-уйда (Тошкент шаҳар солиқ бошқармаси) бўлиб ўтиши белгиланган. Маълумот олиш учун телефон: +99888-146-60-64, эл. манзил: nodirn1984.uz@mail.ru

---

Навоий вилояти Кармана туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 октябрдаги 4-2101-2503/11773-сонли ажримига асосан Навоий вилояти, Навоий шаҳрида жойлашган "Nuro-ta parranda agro kompleks" МЧЖга (СТИР 303774260) нисбатан кузатув тартиб-таомили жорий қилинган. Муваққат кузатув бошқарувчиси этиб 3-тоифали (Аттестат АА №000516) суд бошқарувчиси Бекмурзаев Урал Рузикулович тайинланган.

Ишнинг муҳокамаси 2025 йил 27 ноябрь куни соат 9.30 да Навоий шаҳри, Навоий кўчаси, 39-б уйда бўлиб ўтади.

Тел: +99897-795-14-41 (У.Бекмурзаев).

Риштон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 октябрдаги 4-1505-2502/7548-сонли ҳал қилув қарори билан "Rishton sara urug'chilik" МЧЖ (СТИР 310080173), Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 октябрдаги 4-1504-2502/12110-сонли ҳал қилув қарори билан "Grand xayr baraka" МЧЖ (СТИР 303467302) ва Фарғона туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 14 октябрдаги 4-1501-2503/17036-сонли ҳал қилув қарори билан "Obod yo'l qurish" МЧЖга (СТИР 308562861) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг умумий тартибида тугатиш таомили жорий қилинган. Суд бошқарувчиси этиб Т.Искандаров тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 13 ноябрь куни "Rishton sara urug'chilik" МЧЖ бўйича соат 11.00 да, "Grand xayr baraka" МЧЖ бўйича соат 10.00 да ва "Obod yo'l qurish" МЧЖ бўйича соат 14.30 да Фарғона шаҳри, Мовароуннаҳр кўчаси, 17/1-уйда ўтказилади.

Кредиторлар ўз талаблари юзасидан эълон чоп этилган кундан бошлаб 1 ой муддат ичида суд бошқарувчисига мурожаат қилишлари мумкин. Жамият мулкларини баҳолаш учун ихтисослаштирилган баҳоловчи ташкилотлардан ҳамда ташқи аудитдан ўтказиш учун аудиторлик ташкилотларидан тижорат таклифлари кутиб қолинади. Мазкур хўжалик юритувчи субъектлар мансабдор шахслари томонидан думалоқ муҳри, тўртбурчак штампи, ЭРИ калити, низоми ва гувоҳномалари суд тугатиш бошқарувчисига уч кун муддатда тақдим этилмаган тақдирда, бекор қилинган деб ҳисобланади.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси телефони: +99893-202-00-66.

Боғот туманлараро иқтисодий судининг ажримларига асосан қуйидаги жадвалдаги юридик шахсларга нисбатан банкротлик таомилининг кузатув жараёни жорий қилинди ва муваққат бошқарувчи этиб Рахимов Мақсуд Балтабаевич тайинланди.

Т/р	Ташкилот номи	СТИР	Ажрим рақами	Санаси
1	"Royal agrohouse" МЧЖ	306850085	4-2203-2501/10287	13.10.2025
2	"Nozima Fayz" МЧЖ	303181493	4-2203-2508/10288	13.10.2025
3	"Royal agro groups" МЧЖ	307947445	4-2203-2508/10289	13.10.2025

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 21 ноябрь куни соат 16.30 да "Ипотека-банк" АТИБ Хоразм вилояти филиали биносида бўлиб ўтади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботи муҳокамаси.
2. Кузатув жараёни календарь иш режаси ва кредиторлар реестрини тасдиқлаш.
3. Муваққат бошқарувчига иш ҳақи миқдорини белгилаш.
4. Кузатув жараёни натижасига кўра банкротликнинг кейинги таомилини белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Кредиторлар ўз талабларини эълон чиққан кундан эътиборан 1 (бир) ой муддат ичида муваққат бошқарувчига билдиришлари мумкин.

Мурожаат учун манзил: Урганч шаҳри, Хива кўчаси, 2-йўлак, 24-уй.

Телефон: +99893-257-23-66.

Беруний туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 сентябрдаги 4-2302-2501/1914-сонли ажримига асосан "SS-Sh mega" МЧЖга (СТИР 309650332) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва иш судда кўриб чиқилгунига қадар кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи вазифасига суд бошқарувчиси Эгамберганов Хурмат Эгамберганович тайинланган. Суднинг ажрими олинган кундан кузатув жараёни бошланди.

Мазкур қарздор жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 30 октябрь куни соат 11.00 да бошланади. Кредиторлар йиғилиши Урганч шаҳар, Й.Бобожонов кўчаси, 8-уйда, 113-хонада ўтказилиши белгиланган. Кредиторлар вакилларини рўйхатга олиш 2025 йил 30 октябрь куни соат 10.45 да бошланади. Вакил тегишли ишончнома, шахсини тасдиқловчи ва талабини тасдиқловчи ҳужжатлари билан келиши лозим.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг кузатув жараёни натижалари бўйича ҳисоботи.
2. "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 26-моддасига асосан суд бошқарувчисига тўланадиган ҳақни (қўшимча ҳақни) белгилаб тасдиқлаш, тўлаш манбаини тасдиқлаш ҳамда кредиторлар талаблари реестрини тузиш.
3. Даъвогар-кредиторнинг талаблари қоплаб берилмаса ёки келишув битими тузишга эришилмаса, қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
4. Суд бошқарувчиси (тугатиш бошқарувчиси) номзодини тасдиқлаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаб тасдиқлаш.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси Х.Эгамберганов телефон рақами: +99897-791-77-22.

Нукус туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 13 ва 14 октябрдаги ажримларига асосан қуйидаги қарздорларга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва иш судда кўриб чиқилгунига қадар кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи вазифасига суд бошқарувчиси Эгамберганов Хурмат Эгамберганович тайинланган.

Т/р	Тўловга қобилиятсиз корхона номи	СТИР	Ажрим санаси ва рақами	Кредиторларнинг биринчи йиғилиши
1	"Takhiatash agrotex cluster" MChJ	310307576	13.10.2025 йил 4-2301-2503/2041	21.11.2025 й соат 10.00
2	"Mega haus city" MChJ	305569141	14.10.2025 йил 4-2301-2503/2051	21.11.2025 й соат 11.00
3	"MMA-group-Nukus" MChJ	306427959	14.10.2025 йил 4-2301-2503/2119	21.11.2025 й соат 12.00

Ҳар учала қарздор корхона суд мажлиси 2025 йил 28 ноябрь куни соат 10.10 да бошланади.

Кредиторлар йиғилишлари Нукус шаҳри, Амир Темур кўчаси, 112-а уй, 107-хонада ўтказилади.

Кредиторлар вакилларини рўйхатга олиш йиғилишдан 15 дақиқа олдин бошланади.

Вакил тегишли ишончнома, шахсини тасдиқловчи ва талабини тасдиқловчи ҳужжатлари билан келиши лозим.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг кузатув жараёни натижалари бўйича ҳисоботи.
2. "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 26-моддасига асосан суд бошқарувчисига тўланадиган ҳақни (қўшимча ҳақни) белгилаб тасдиқлаш, тўлаш манбаини тасдиқлаш ҳамда кредиторлар талаблари реестрини тузиш.
3. Даъвогар-кредиторнинг талаблари қоплаб берилмаса ёки келишув битими тузишга эришилмаса, қарздорларга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
4. Суд бошқарувчиси (тугатиш бошқарувчиси) номзодини тасдиқлаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаб тасдиқлаш.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси Х.Эгамберганов телефон рақами: +99897-791-77-22.

Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 5 сентябрдаги 4-1104-2502/6285- сонли иш юзасидан қабул қилган ажрими билан Нурафшон шаҳридаги "Tashkent best seeds" масъулияти чекланган жамиятига (СТИР 309586997) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Суднинг мазкур ажрими билан муваққат бошқарувчи этиб Б.Арифҳоджаев тайинланган (муваққат бошқарувчининг манзили: Жиззах вилояти, Жиззах шаҳри, Қассоблик МФЙ, 5/1-уй, 26-хонадон. Мурожаат учун тел: +99877-401-30-03).

Мазкур қарздорнинг 2025 йил 24 октябрдаги кредиторлар қарорига асосан такрорий биринчи йиғилиши 2025 йил 12 ноябрь куни соат 11.00 да, шу куни бўлиб ўтмаган тақдирда такрорий йиғилиш 2025 йил 14 ноябрь куни соат 11.00 да Тошкент вилояти, Нурафшон шаҳри, Оппоқ маҳалласи, Оппоқ кўчаси, 126-уйда қарздор маъмурий биносида бўлиб ўтади.

Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакиллари шахсини ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиши сўралади.

Кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
3. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш.
4. Келишув битимини тузиш масаласини кўриб чиқиш.

Термиз туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 октябрдаги 4-1901-2503/7047-сонли ажримига асосан "Xumo Industriai" МЧЖга (СТИР 308560532) ва Шеробод туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 октябрдаги 4-1902-2502/7736-сонли ажримига асосан "Maxdi Yusuf" Х/Кга (СТИР 302004388) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Ибрагимов Анвархон Исакович тайинланган.

Шу муносабат билан "Xumo Industriai" МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 25 ноябрь куни соат 14.00 да ва "Maxdi Yusuf" Х/К кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 25 ноябрь куни соат 16.00 да Давлат активларини бошқариш агентлигининг Сурхондарё вилояти ҳудудий бошқармаси биносида (Термиз шаҳри, М.Қошқарий кўчаси, 36-а уй) ўтказилади, 2 декабрь куни соат 15.30 да Шеробод туманлараро иқтисодий суди биносида очиқ суд йиғилиши бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилиши кун тартиби:

1. Суд бошқарувчисининг тўловга қобилиятсизликнинг кузатув тартиб-таомилида қилган ишлари юзасидан ҳисоботи.
2. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги тартиб-таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат этиш.
3. Муваққат бошқарувчига хизмат вазифасини бажарганлик учун иш ҳақи миқдори ва тартибини белгилаш.
4. Банкротликнинг кейинги тартиб-таомилига суд бошқарувчиси номзодини белгилаш.
5. Кредитор ва муассис талабига кўра, бошқа ҳар хил масалалар.

Йиғилишда кредиторлар вакиллари ўзаро қарздорлик тўғрисидаги солиштирма далолатнома ҳамда ишончнома тақдим этишлари шарт.

Даъво ва эътирозлар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой мобайнида Термиз шаҳри, М.Қошқарий кўчаси, 36-а уйда қабул қилинади. Мурожаат учун тел: +99899-242-70-00.

Боёвут туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 октябрдаги 4-1202-2501/5254-сонли ажримига асосан “Ziyo nur metan servis» MChJ (СТИР 304435515), 2025 йил 15 октябрдаги 4-1203-2501/4162-сонли ажримига асосан “Azim Bexdil 2022” MChJ (СТИР 309090104), 2025 йил 15 октябрдаги 4-1203-2501/4164-сонли ажримига асосан “Valetudo” MChJra (СТИР 311359979) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилди

Кредиторларнинг биринчи умумий йиғилиши 2025 йил 28 ноябрь куни соат 11.00 да Гулистон шаҳри, Ўзбекистон кўчаси, 3-уй, 18-хонада (Бизнес марказ биноси) бўлиб ўтади.

Кун тартиби: муваққат бошқарувчи ҳисоботи, кредиторлар реестрини тасдиқлаш, келгуси таомилни танлаш, бошқарувчи номзоди ва иш ҳақини тасдиқлаш, бошқа масалалар.

Мурожаат учун манзил: Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 3-мавзе, Ўзбекистон кўчаси, 3-уй, тел: +99893-326-18-78. Электрон почта: azizjoneraliev86@gmail.com

Зомин туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 октябрдаги ҳал қилув қарорига асосан Даштобод шаҳридаги “Даштобод савдо” МЧЖ (СТИР 305645300) масъулияти чекланган жамияти соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш очилган. Тугатиш суд бошқарувчиси этиб Эргашев Хуршид тайинланган.

“Даштобод савдо” МЧЖ кредиторларнинг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 ноябрда соат 10.00 да Зомин туман солиқ инспекцияси биносида ўтказилади. Мурожаат учун тел: +99899-552-94-88.

Ушбу хўжалик юритувчи субъектга тегишли бўлган думалоқ муҳр ва тўртбурчак тамғалар эълон чиққан кундан бошлаб 10 кун муддат ичида тугатиш суд бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, ҳақиқий эмас деб топилади ҳамда бекор қилинади.

СООБЩЕНИЕ!

Решением Ташкентского межрайонного экономического суда от 17 октября 2025 года по делу №4-1001-2502/66485 ООО «NEFTGAZMONTAJ» (ИНН 204993861), признанно неплатежеспособным (банкротом) и в отношении данного предприятия введена процедура ликвидационного производства без приостановки деятельности. Данным решением суда ликвидационным управляющим назначен Ниязметов Фарход Зафарович.

Назначен срок предъявления претензий 40 дней с момента опубликования данного объявления.

Контактные телефоны: +99893 384 24 00, +99898 368 24 00, +99894 634 63 44

Почтовый адрес: 100019, Республика Узбекистан, город Ташкент, Алмазарский район, ул. Ш. Илохий, дом 37.

“Нишон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти

акциядорлари диққатига!

“Нишон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти фаолиятини тиклаш тўғрисида эълон қилади!

“Нишон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 11 ноябрь куни ўтказилади. Умумий йиғилиш соат 11.00 да Қашқадарё вилояти, Нишон тумани, “Ёшлар диёри” МФЙда жойлашган “Нишон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти маъмурий биноси мажлислар залида бўлиб ўтади.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 10.00 бошланади.

Жамиятнинг расмий веб-сайти: www.nishonpaxta.uz

Кун тартибидаги масалалар:

1. Умумий йиғилиш регламенти ва саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш.
2. “Нишон пахта тозалаш” АЖ фаолиятини тиклаш.
3. “Нишон пахта тозалаш” АЖ ижроия органи раҳбари-бош директорини сайлаш.
4. “Нишон пахта тозалаш” АЖ кузатув кенгашини сайлаш.

Жамият акциядорларининг реестри шакллантириладиган сана – умумий йиғилишни ўтказиш тўғрисида хабардор қилиш учун акциядорлар реестри 2025 йил 20 октябрь ҳолатига ва акциядорлар умумий йиғилишида қатнашиш ҳуқуқига эга жамият акциядорларининг реестри 2025 йил 5 ноябрь ҳолатига шакллантирилади.

Акциядорлар ўзлари билан шахсини тасдиқловчи ҳужжат-паспорт, уларнинг вакиллари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган тартибда расмийлаштирилган ишончнома билан келишлари шарт (жисмоний шахслар учун-нотариус томонидан тасдиқланган, юридик шахслар учун-мазкур юридик шахс томонидан берилган).

Акциядорлар навбатдан ташқари умумий йиғилиш тўғрисидаги маълумотлар билан “Нишон пахта тозалаш” АЖ маъмурий биносида танишишлари мумкин.

Акциядорлар қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: Қашқадарё вилояти, Нишон тумани, “Ёшлар диёри” МФЙ.

Электрон почта: nishon-paxta@umail.uz, тел.: +99899-416-28-63, +99897-312-17-71.

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ /
REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI
+998 (99) 353-55-54
telegram BIZNES DAILY BIRJA

Chakana va ulgurji tovar savdo aylanmasi o‘sish sur’atida

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil 1-oktyabr holati bo‘yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 84 838 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 355 taga, kichik korxona va mikrofirmalar soni 84 483 taga yetdi.

Joriy yilning yanvar–sentyabr oyida respublikamizning chakana savdo tovar aylanmasi 316 378,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 11,0 foizga o‘sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 57 604,6 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati – 117,8 foiz), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 258 773,9 mlrd so‘mni tashkil etdi (o‘sish sur’ati – 109,6 foiz).

2025-yil 1 oktyabr holatiga ko‘ra, ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 50 086 tani, shundan faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 391 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 49 695 tani tashkil etdi. Respublika bo‘yicha yanvar–sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 346 597,3 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 foizga o‘sdi. Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 98 072,9 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati – 121,6 foiz), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 248 524,4 mlrd so‘mni tashkil etdi (o‘sish sur’ati – 109,5 foiz). Respublikamizda jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 71,7 foizda bo‘ldi.

Hisobot davrida umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 25 589 tani, shundan yirik korxonalar soni 117 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 25 472 tani tashkil etdi. Joriy yilning yanvar–sentyabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 167 913,2 mlrd so‘mga yetdi va 2024 yilning mos davriga nisbatan 13,8 foizga oshdi. Savdo aylanmasining 84,0 foiz ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi, qolgani yirik korxonalar ulushini tashkil etdi.





Soliqqa oid nizolar bo‘yicha ekspert kengashi tashkil etiladi

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-oktyabrdagi 672-sonli qarori bilan Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Soliqqa oid nizolar bo‘yicha ekspert kengashi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Nizom Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Soliqqa oid nizolar bo‘yicha ekspert kengashining faoliyatini tashkil etish hamda tadbirkorlik subyektlari va soliq organlari o‘rtasida yuzaga kelgan soliqqa oid nizolarni ko‘rib chiqish va ular yuzasidan xulosalar berish tartibini belgilaydi.

Quyidagilar kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- tadbirkorlik subyektlari va soliq organlari o‘rtasida yuzaga kelgan soliqqa oid nizolarni ko‘rib chiqish hamda ular yuzasidan xulosalar berish.
- soliq qonunchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning qo‘llanilishini o‘rganish, huquqni qo‘llash amaliyoti sifatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.
- soliqqa oid nizolarni ko‘rib chiqishda biznes hamjamiyati, davlat organlari va tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatish.

Kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi. Kengash majlislari bir oyda kamida ikki marta o‘tkaziladi.

O‘zbekiston-Turkiya: xususiylashtirish bo‘yicha xodimlar almashinuvi dasturi yakunlandi

Davlatlat aktivlarini boshqarish agentligiga binolar va yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish vazifasi yuklatilgan edi.



Shundan kelib chiqib, agentlik hamda Turkiya Respublikasi Xususiylashtirish Administratsiyasi o‘rtasida imzolangan anglashuv memorandumi asosida muayyan muddatga xodimlar almashinuvi dasturi 2025-yil sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshirildi. Dastur doirasida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi xodimlari joriy yilning 14-29-sentyabr kunlari Turkiyaning Anqara va Istanbul



shaharlarida xizmat safarida bo‘ldilar. Ular o‘quv davomida xususiylashtirish jarayonlarida shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash, jumladan davlat xizmatlarini xususiylashtirish mexanizmlari, bunda professional va barqaror yondashuv asosida ishlash tamoyillarini chuqur o‘rgandilar. Shuningdek, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlarda ushbu jarayonning amaliy jihatlari bilan tanishdilar.
Xizmat safari doirasida Turkiya Raqobat qo‘mitasi hamda Turkiya G‘aznachilik va moliya vazirligiga tashrif uyushtirilib, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati va ularni boshqarish amaliyoti bo‘yicha taqdimotlar bilan tanishildi. Shuningdek, Turkiyada davlat aktivlarini xususiylashtirish sohasidagi qonunchilik asoslari tahlil qilindi. Xususan, “Xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun va unga oid qonunosti hujjatlari atroflicha muhokama qilindi. Dastur davomida xususiylashtirilgan sohalarning natijalari, ko‘chmas mulk va yer maydonlarini xususiylashtirish tartib-taomillari hamda yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish tizimlari bo‘yicha amaliy tajriba o‘rganildi.

Xodimlar almashinuvi dasturining keyingi bosqichi joriy yilning 13-22-oktyabr kunlari Turkiya Respublikasi Xususiylashtirish Administratsiyasi delegatsiyasining O‘zbekiston Respublikasiga amaliy tashrifi mobaynida tashkil etildi. Mazkur o‘quv-amaliy dastur davomida mehmonlar xususiylashtirish jarayonlarining huquqiy-institutsional asoslari, so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning amaliy ijrosi va natijasi bilan tanishdilar. Raqamli boshqaruv tizimlari, “E-Auksion” elektron savdo platformasi orqali amalga oshirilayotgan jarayonlarni bevosita o‘rgandilar. Turk delegatsiyasi tomonidan bu tizimlar davlat mulkini boshqarishda shaffoflik, samaradorlik va ochiqlikni ta’minlaydigan zamonaviy raqamli yechim ekanligi ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, ular davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish, kuzatuv kengashlari faoliyatini kuchaytirish hamda KPI tizimini joriy etish, davlat aktivlarining yagona reyestri yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishdilar.

Yakuniy uchrashuv Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rahbariyati ishtirokida o‘tkazilib, tashrif natijalari sarhisob qilindi va ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari muhokama qilindi. Tomonlar 2026-yilda ham shunday o‘quv va tajriba almashish dasturlarini izchil davom ettirish, soha mutaxassislarining malakasini oshirish hamda davlat aktivlarini samarali boshqarish sohasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash yuzasidan kelishib oldilar.

Zamira Tojiyeva.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi axboroti eshitildi

Ma’lumki, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilangan.



Jumladan, davlat budjeti loyihasini tayyorlash hamda ko‘rib chiqishda barqaror rivojlanish milliy maqsadlarini hisobga olish va aks ettirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, tasdiqlangan 16 ta milliy maqsad, 127 ta vazifani 190 ta indikator orqali monitoring qilish joriy etilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligining ayni shu masaladagi axboroti eshitildi. Vazirlik tomonidan joriy yilning to‘qqiz oyi davomida davlat budjeti parametrlarida barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar uchun ajratilgan mablag‘lar hamda ularning sarflanishi to‘g‘risida ma’lumot berildi. Vazirlikning davlat budjeti siyosati departamenti direktori Sherzod Muxamedovning qayd etishicha, barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida ko‘rsatilgan vazifalar ijrosiga erishish uchun davlat budjetidan 2021-yilda 68,8 foiz mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 74,1 foizni tashkil etgan. Joriy yilning 9 oyida mazkur yo‘nalishga sarflangan mablag‘lar davlat budjeti xarajatlarining qariyb 74 foizini tashkil qilgan. Bugungi kunda BMT va Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda budjet xarajatlarini yo‘nalish hamda vazifalariga qarab barqaror rivojlanish maqsadlariga biriktirish, ya’ni markirovkalash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, budjet xarajatlarining barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri hisoblangan atrof-muhitga, iqlim o‘zgarishiga ta’sirini baholash jarayoni ham amalga oshirilmoqda. Bunda xarajatlar tahlil qilingan holda ushbu xarajatlar orqali kelgusida qanday natijaga erishilishi va bu jarayonning atrof-muhitga ta’siriga baho beriladi. Bu qaysi maqsadlarga ko‘proq yoki kamroq mablag‘ ajratilayotganini aniqlash va ochiq ma’lumot tayyorlash imkonini yaratib, budjet jarayoni shaffofligini oshiradi. Tahlillarga qaraganda, 2024-yilgi davlat budjeti jami xarajatlarining 8,8 foizi atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan va salbiy ta’sirga ega bo‘lmagan xarajatlar sifatida baholangan. Jami xarajatlarning 88 foizi atrof-muhitga neytral ta’sir qiladigan xarajatlar hisoblangan. Vazirlik vakilining e’tiroficha, kelgusidagi rejalarga ko‘ra, davlat moliyasini boshqarish islohotini barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga bog‘lash, davlat budjeti xarajatlarini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tasniflash, ya’ni uning uslubiyotini ishlab chiqish, bunda “yashil” tasniflash natijalarini inobatga olish ko‘zda tutilgan. Mazkur jarayon ikki bosqichda yo‘lga qo‘yilishi mo‘ljallangan bo‘lib, birinchisida, har bir budjet xarajatining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga hissasi to‘liq va chuqur tahlil qilinadi. Ikkinchisida, dasturiy budjetlashtirish jarayonlarini barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga bog‘lashga oid normalar kiritiladi. Shuningdek, bu haqdagi ma’lumotlarni har yilgi davlat budjeti hisobotlarida, fuqarolar uchun budjet nashrlarida keng aks ettirib borish ko‘zda tutilgan.



Masala muhokamasi davomida deputatlar davlat budjetining barqaror rivojlanish milliy maqsadlarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha moliyalashtirishni talab qiladigan sohalarni aniqlash va xarajatlar samaradorligini tahlil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish, budjet mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash hamda natijadorlikka erishish yuzasidan o‘z takliflarini bildirishdi. Shuningdek, barqaror rivojlanish milliy maqsadlari yo‘nalishiga ajratilgan mablag‘larning manzilli va samarali ishlatilishi ustidan parlament hamda mahalliy kengash deputatlari nazorati mexanizmini ishlab chiqish taklifi o‘rtaga tashlandi.



Zamira Tojiyeva.

Asosiy stavka 14 foizda qoldirildi: unga qaysi omillar sabab bo‘ldi?

Markaziy bank raisi Timur Ishmetov shu masalaga bag‘ishlangan matbuot anjumanida batafsil ma’lumot berdi.

Uning e’tirofiga ko‘ra, asosiy stavka darajasining o‘zgarishsiz qoldirilishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, nisbatan qat’iy pul-kredit sharoitlari ta’minlanishi, o‘tgan yildagi inflyatsiya omillari hissasi chiqib ketishi va almashuv kursi mustahkamlanishi natijasida so‘nggi oylardan inflyatsiya pasayuvchi dinamikaga o‘ta boshladi. 2025-yil sentyabr oyida umumiy inflyatsiya darajasi 0,8 foiz bandga pasayib, yillik 8 foizga teng bo‘ldi. Bunda oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari guruhi inflyatsiyasi pasaytiruvchi hissa qo‘shdi. Xususan mazkur guruhlar yillik inflyatsiyasi 6,1 foizgacha pasaydi. Xizmatlar inflyatsiyasi, jumladan, tartibga solinadigan narxlar ta’sirisiz ham, talab omillari hisobiga umumiy inflyatsiyadan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Almashuv kursining mustahkamlanishi import inflyatsiyasining sekinlashishiga xizmat qilib, nooziq-ovqat tovarlari narxlarining barqarorlashuviga yordam bermoqda. So‘nggi oylarda iste’mol savatida narxlari o‘sishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sekinlashgan tovarlar va xizmatlarning ulushi oshib bormoqda va sentyabrda 66 foizni tashkil etdi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyotda narxlar barqarorlashuvi keng qamrovli xususiyatga ega bo‘la boshlaganini ko‘rsatmoqda. Ammo ushbu ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda aholi kundalik hayotida ko‘p iste’mol qiladigan “marker” tovar va xizmatlar narxlarining yillik o‘sishi umumiy inflyatsiyadan sezilarli darajada baland qolmoqda. Xususan, mol go‘shti 23,2 foizga, kartoshka 18,5 foizga va benzin 11,8 foizga qimmatlashgan. Shu bois mahsulotlar taklifi va narxlarini barqarorlashtirish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda amaliy choralar ko‘rilmoqda.

Ikkinchidan, inflyatsiya darajasida pasayuvchi tendensiya shakllangani bilan narxlarga bosim yaratuvchi omillar saqlanib qolmoqda. Joriy yilning uchinchi choragida iqtisodiy o‘sish yuqori shakllanib, 7,6 foizni tashkil etdi. Real daromadlarning ortishi va chakana kreditlash faolligi aholining xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlamoqda va iste’mol talabini oshirmoqda. Iqtisodiyotdagi iste’mol talabi yuqoriligi savdo va pullik xizmatlardan tushumlar hajmi va ko‘chmas mulk bitimlari sonining o‘sishida ham o‘z aksini topmoqda. Shu bilan birga, kelgusi oylarda energiya narxlari erkinlashtirilishining va avtomobil yonilg‘ilari narxlari oshishining transport xarajatlari orqali inflyatsiyaga ikkilamchi ta’sirlari yaqqolroq namoyon bo‘lishi hamda ayrim tovarlar taklifi bilan bog‘liq mavsumiy xatarlar yuzaga kelishi ehtimoli saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, asosiy savdo hamkor davlatlardagi inflyatsiya darajasining target ko‘rsatkichlaridan sezilarli yuqori qolishi kelgusida import inflyatsiyasini ko‘tarishi mumkin.

Uchinchidan, asosiy stavkanining o‘zgarishsiz qoldirilishi iqtisodiyotda yuqori iste’mol talabi sharoitida inflyatsiyaga monetar omillar ta’sirini yumshatish imkonini beradi. Nisbatan qat’iy pul-kredit sharoitlari iqtisodiyotda milliy valyutada jamg‘arish jozibadorligini saqlab qolib, kreditlash sur’atlarini maqbullashtirish va pul bozorida resurslar narxlarini mutanosib shakllantirish orqali yalpi talabni muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 41 foizga oshib, 283 trln so‘mni tashkil etdi (bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 83 trln so‘mga ko‘p). Kreditlashning yuqori sur’atda jadallashuvi yalpi talabni rag‘batlantiruvchi ahamiyat kasb etib, pul-kredit sharoitlarini qat’iy saqlab qolish zaruratini ko‘rsatmoqda.



Shu kabi omillar hisobga olinib, iqtisodiyotdagi inflyatsion bosimni kamaytirish va o‘rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadida asosiy stavkani 14 foizda qoldirish qaroriga kelindi.

Markaziy bank rahbari bugungi kunda ichki valyuta bozoridagi tendensiyalar va so‘mning mustahkamlanishiga oid masalaga ham to‘xtalib o‘tdi. Uning e’tiroficha, joriy yilning aprel oyidan milliy valyuta almashuv kursida mustahkamlanish tendensiyasi bilan birgalikda kunlik tebranishlar darajasining ikki barobarga oshishi kuzatilmoqda. Yanvar-sentyabr oylarida so‘mning qadri 6,5 foizga oshdi. Almashuv kursining mustahkamlanishi natijasida iqtisodiyotimizda milliy valyutaga bo‘lgan ishonch ortishi bilan bog‘liq bir qator ijobiy makro-tendensiyalar namoyon bo‘lmoqda. Milliy valyutadagi hisob-kitoblar hamda so‘mda jamg‘arishning faollashgani hisobiga bank tizimidagi milliy valyutadagi pul massasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 34 foizga (qariyb 70 trln so‘mga) oshdi va 271 trln so‘mga yetdi. Depozit va kreditlarning dollarlashuv darajasida pasayish dinamikasi tezlashdi (kreditlar bo‘yicha 41 foizdan 37 foizgacha, depozitlar bo‘yicha 26 foizdan 23 foizgacha kamaydi). Tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillarga qaraganda, eksport tovarlarining 15 foizi (3 mlrd dollar), import tovarlarining 40 foizi (14 mlrd dollar) almashuv kursi o‘zgarishiga ta’sirchanligini ko‘rsatgan. Tovarlar eksportiga almashuv kursi bilan bir qatorda tashqi bozorlardagi narxlar kon’yunkturasi, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport davlatlaridagi tarif va notarif cheklovlar hamda raqobat muhiti ta’sir qilgan. Markaziy bankda almashuv kursi darajasi bo‘yicha ma’lum bir mo‘ljallar yoki target mavjud emas. Ammo so‘m kursi fundamental omillar ta’sirida bozor tamoyillari asosida shakllanishi bo‘yicha barcha sharoitlar ko‘rilib boriladi.

Markaziy bank raisi jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga javoban o‘z izohlarini berib o‘tdi. Chunonchi, tashqi qarzning ko‘p qismi nega davlat budjetini qo‘llab-quvvatlashga sarflanishini tushuntirdi. Shuningdek, bank bozoridagi raqobat katta masala ekani va u diqqat markazida bo‘lib turganini ta’kidladi. Mazkur yo‘nalishda yetarlicha raqobat ko‘rinmayotganini, banklarning ba’zi mahsulotlarini moliyaviy texnologiyalarga taqdim etishga ruxsat berish orqali raqobat muhitini yaratish mumkinligini bildirdi. Shuningdek, kichik biznesni moliyalashtirishdagi asosiy muammolarga to‘xtaldi. Xususan, bunday muammolar qatorida u kreditlarning haddan tashqari qimmatligi, skoring tizimi va kredit olish jarayonidagi ma’murchilikning murakkabligini sanab o‘tdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, hozirgi kunda kichik biznesning moliyalashtirishga bo‘lgan talabi to‘laligicha qondirilmayapti. Bunga nafaqat resurs yetishmasligi, kreditlarning qimmatligi, ya’ni foiz stavkasining yuqoriligi ham ta’sir ko‘rsatadi. Juda kichik miqdorda, 10 mln, 20 mln, 200 mln kredit olmoqchi bo‘lsa, ular haqiqatda qiyinchilikka duch keladi. Chunki banklar uchun 10–20 mln kredit olmoqchi bo‘lgan biznes bilan gaplashishning o‘zi ovoragarchilik, xarajatiga arzimaydi. Bundan tashqari, banklar uchun kichik biznesni baholash qiyin. Bank to‘lovga layoqatliligi, skoring natijasi, xususan, kredit tarixi, kommunal xizmatlar va soliqdan qarzlari, to‘lov madaniyatini o‘rganib chiqib, unga ishonch bildirmaydi. Shuning uchun bu borada hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ko‘p. Hozirda mazkur muammolarni hal etish maqsadida tegishli ish olib borilyapti. Jumladan, skoring tizimida modellar o‘zgartirilmoqda.

Sifat va standartga moslik: tahlil va choralar

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan joriy yil yanvar–sentyabr oylarida olib borilgan keng qamrovli tekshiruvlar natijasida sohada qonunbuzilish holatlarini bartaraf etishga erishilgan.

Bu haqda jurnalistlar uchun uyushtirilgan matbuot anjumanida ma’lumot berildi.

Taqdim etilgan axborotga ko‘ra, 2025-yilning to‘qqiz oyida O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Nazorat inspeksiyasi mutaxassislari tomonidan 442 ta korxonada davlat nazorati tadbirlari o‘tkazildi. Natijada 492 turdagi mahsulot tekshirilib, 451 tasi (91,6 foizi) nomuvofiq deb topildi va 8,8 milliard so‘mlik mahsulot standart talablariga javob bermasligi aniqlandi. Shuningdek, 28 477 ta o‘lchash vositasidan 21 035 tasi (73,8 foizi) qiyoslanmagani, 69 ta o‘lchash vositasi esa umuman yaroqsiz holatda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Tahlillarga qaraganda, 62 ta korxona tomonidan 570,9 milliard so‘mlik mahsulot sertifikat talablariga zid ravishda sotilgan, 48 turdagi mahsulot esa texnik reglament va standartlar talablariga mos kelmagan. Sohalar kesimida eng ko‘p qonunbuzilish holatlari oziq-ovqat (29,9 foiz), qurilish (32,5 foiz) va yengil sanoat (29 foiz)



tarmoqlariga to‘g‘ri kelgan. Kuzatilgan qonunbuzilishlar yuzasidan 429 nafar mas’ul shaxsga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalari asosida bayonnomalar rasmiylashtirildi. Shu bilan birga, 122 ta korxonaga nisbatan 305,3 milliard so‘mlik moliyaviy jarima qo‘llash uchun hujjatlar tayyorlandi. 402 nafar shaxsga nisbatan 289,6 million so‘m jarima belgilanib, 145,6 million so‘mi undirildi. 82 ta korxonaga 171,7 milliard so‘mlik talabnoma yuborilib, 64 ta tadbirkorlik subyektidan 748,6 million so‘m undirildi. Sud orqali 31 ta korxonadan 62,8 milliard so‘mni undirish haqida qaror chiqarildi.

Ta’kidlanganidek, nazorat tadbirlari barcha hududlarda amalga oshirilgan. Jumladan, Toshkent shahrida 43 ta tekshiruv o‘tkazilib, 207 ta mahsulotdan 199 tasi nomuvofiq deb topilgan. Farg‘ona viloyatida 29 ta tekshiruv uyushtirilib, 33 ta mahsulotdan barchasi nomuvofiq jkanligi ma’lum bo‘lgan. Buxoro viloyatida olib borilgan 38 ta tekshiruv orqali 56 ta mahsulotdan 54 tasi nomuvofiqligi aniqlangan. Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va boshqa viloyatlarda ham shunga o‘xshash holatlar qayd etilgan. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar mahsulot sifati va standartlariga rioya etish borasida hali ham yetarli darajada e’tibor yo‘qligini ko‘rsatmoqda.

O‘z navbatida Nazorat inspeksiyasi tomonidan qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 15 891 ta tadbirkorlik subyektiga ogohlantirish xatlari va tarqatma materiallar yuborilgan. Bundan tadbirkorlar o‘rtasida sohaga oid qonunchilik talablarini tushuntirish va xabardorlikni oshirish maqsad qilingan.

Alohida e’tirof etilganidek, sertifikat hujjatlarining tahlili ham yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, joriy yil boshidan buyon 2 161 ta sertifikatlash hujjati to‘plami o‘rganilgan. Shundan 290 tasida kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etish uchun qaytarilgan.

Yo‘nalishlar kesimidagi tahlillarga ko‘ra, lift va eskalatorlar bo‘yicha 519 ta hujjatning 43 tasida, kabel, kotyol va konditsionerlar bo‘yicha 1 159 ta hujjatdan 172 tasida, armatura va metall listlarga oid 379 ta hujjatning 61 tasida, sement va oyna mahsulotlarida jami 10 ta kamchilik kuzatilgan. Shuningdek, sertifikatlashtirish sohasidagi 76 ta idora faoliyati tahlil qilinib, aniqlangan 656 ta kamchilik yuzasidan 26 ta idoraga nisbatan muvofiqlik sertifikatlarini bekor qilish bo‘yicha choralar ko‘rilgan.

Joriy yilda laboratoriyalarning texnik jihatdan malakaliligini baholash va tasdiqlash bo‘yicha 587 ta korxona va tashkilot bilan 13,8 milliard so‘mlik shartnomalar imzolangan. Shundan 470 ta korxona 10,6 milliard so‘mlik to‘lovni amalga oshirgan. 441 ta laboratoriya tekshirilib, 379 tasiga malaka guvohnomasi berilgan, 21 ta korxona belgilangan muddatda kamchiliklarni bartaraf etmagani sababli rad etilgan.

Ma’lum qilinshicha, Nazorat inspeksiyasi tomonidan joriy yil oxirigacha 294 ta davlat nazorati, 2 160 ta tadbirkorlik subyektida profilaktika ishlari amalga oshiriladi, 1 056 ta sertifikat hujjati to‘plami tahliliy o‘rganadi.

Maqsad har bir korxona va ishlab chiqaruvchiga qonun talablariga amal qilgan holda, raqobatbardosh, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishda ko‘mak berishdan iborat.

Создание Единой электронной системы обмена информацией между министерствами юстиции обсудили в Исполнительном комитете СНГ

Состоялось второе заседание Рабочей группы Совета министров юстиции по выполнению мероприятий Дорожной карты по реализации Концепции создания Единой электронной системы обмена информацией между министерствами юстиции государств – участников СНГ.

В заседании, прошедшем в формате видеоконференции, приняли участие представители министерств юстиции и других заинтересованных органов от Республики Армения, Республики Беларусь, Кыргызской Республики, Российской Федерации, Республики Таджикистан, Республики Узбекистан, Белорусской нотариальной палаты и сотрудники Исполнительного комитета СНГ.





Узбекской стороной были представлены результаты анкетирования основных критериев и принципов функционирования информационных систем министерств юстиции государств – участников СНГ, в том числе наличие информационных систем в области взаимной правовой помощи.

Представители государств обсудили концепцию разработки технических требований и архитектуры Единой электронной системы обмена информацией между министерствами юстиции государств – участников СНГ, представленную Республикой Узбекистан, а также возможности модификации информационных систем.

Разработка и функционирование межведомственной электронной системы позволит создать необходимые условия для развития и распространения трансграничного электронного документооборота между субъектами юстиции для повышения эффективности и продуктивности в сфере оказания правовой помощи на пространстве Содружества.

К третьему заседанию Рабочей группы Министерством юстиции Республики Узбекистан будет представлен проект технического задания на проектирование и внедрение Единой электронной системы обмена информацией между министерствами юстиции государств – участников СНГ, включая требования по обеспечению информационной и кибербезопасности при построении, проектировании, пользовании, сопровождении системы, а также организации защищенных каналов. Очередное заседание Рабочей группы состоится в декабре 2025 года.



Узбекистан завоевал рынок поставки яблок в Казахстан и Россию

Узбекистан существенно нарастил объёмы поставок плодоовощной продукции на зарубежные рынки, передает Ulysmedia.kz.

Согласно данным государственного комитета Узбекистана по статистике, с января по август этого года бюджет страны пополнился на сумму более 11,6 млн долларов за счёт экспорта яблок.

За указанный период 22,6 тыс. тонн этой продукции направлено 10 различным странам. Основными потребителями узбекских яблок оказались Казахстан и Россия - их показатели почти идентичны.

Россия — 10 721 тонна;

Казахстан — 10 098 тонн;

Кыргызстан — 1 275 тонн;

Туркменистан — 167,4 тонны;

Ирак — 164,3 тонны;


другие страны — 192,2 тонны.

«Silk Road Highlights Tour» Прага

Как сообщает ИА «Дунё», в столице Чехии успешно прошло совместное роуд-шоу Узбекистана и Азербайджана в рамках проекта «Highlights of the Silk Road».

Турне охватывает шесть европейских городов - Франкфурт, Вену, Цюрих, Будапешт, Прагу и Барселону - и реализуется в партнерстве с Бюро по туризму Азербайджана (АТВ) и Национальным PR-центром Узбекистана.

Целью является продвижение культурного, исторического и природного туристического потенциала двух стран, а также укрепление профессиональных контактов между туроператорами и развитие совместных маршрутов по странам Великого шёлкового пути.





В мероприятии приняли участие представители туристических комитетов, PR-центров, DMC и гостиничных сетей, туроператоры и туристические компании Чехии, а также руководители Ассоциации туристических агентств Чехии (ACK ČR) и Ассоциации туроператоров и туристических агентств Чехии (АССКА).

В рамках мероприятия состоялась презентация туристических возможностей Узбекистана и Азербайджана. В презентации узбекской стороны особое внимание было уделено городам Самарканду, Бухаре и Хиве, внесённым в список Всемирного наследия ЮНЕСКО, а также развитию экологического, гастрономического, горнолыжного, MICE- и культурного туризма.

После официальной части прошла «B2B» сессия, в рамках которой туроператоры трёх стран провели прямые переговоры и обменялись предложениями о сотрудничестве.

Мероприятие вызвало большой интерес со стороны чешского туристического сообщества и СМИ. Как отметили участники, Узбекистан сегодня воспринимается как современное, безопасное и гостеприимное направление, объединяющее богатую историю с динамично развивающейся инфраструктурой.

Davlat Soliq Qo'mitasi

Ishlab chiqaruvchilar 60 trln so‘m soliq to‘lagan

2025-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 59 123 ta yuridik shaxs tomonidan 60,1 trln so‘mdan ortiq soliq to‘langan. Shundan 12,6 trln so‘mi 20 ta soliq to‘lovchi* hisobiga to‘g‘ri keladi. Ularning tovar aylanmasi 127 trln so‘m, foydalangan soliq imtiyozlari miqdori esa 2 trln so‘mdan oshgan.

Ushbu soliq to'lovchilar tomonidan to‘langan tushumlar soliq turlari kesimida:

- QQS - 4,1 trln so‘m;
- aksiz solig'i - 3,1 trln so‘m;
- foyda solig'i -1,5 trln so‘m;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq - 1,5 trln so‘m;
- JShODS - 780,2 mlrd so‘m;
- ijtimoiy soliq - 770,3 mlrd so‘m;
- mol-mulk solig‘i - 425,2 mlrd so‘m;
- boshqa soliqlar - 378,7 mlrd so‘m.

*NKMK va OKMK AJdan tashqari

2025-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish sohasida eng ko‘p soliq to‘lagan top-20 korxona (mlrd so‘mda)


YURIDIK SHAXSLAR SONI **59 123**

Tovar aylanmasi	To‘langan soliqlar	Soliq imtiyozlari
566 503,2	60 108,0	26 108,0

SHUNDAN, TOP-20 SOLIQ TO‘LOVCHI BO‘YICHA

Tovar aylanmasi	To‘langan soliqlar	Soliq imtiyozlari
127 082,6	12 646,8	2 016,1
Jami summadagi ulushi		
22,4%	21,0%	7,7%

TOP 20 TUSHUMLARI
(soliq turlari bo‘yicha)



Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 125,5
Aksiz solig‘i	3 090,7
Foyda solig‘i	1 558,4
Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	1 517,8
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	780,2
Ijtimoiy soliq	770,3
Mol-mulk solig‘i	425,2
Boshqa soliqlar	378,7

ENG KO‘P SOLIQ TO‘LAGAN TOP 20

to‘langan soliqlar

1	"O‘ZBEKNEFTGAZ" AJ	2 390,0
2	"UZBAT AO" AJ	1 874,4
3	"TALIMARJON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	1 291,6
4	"UZAUTO MOTORS" AJ	1 208,1
5	"COCA-COLA ICHIMLIGI UZBEKISTON, LTD" XK	701,2
6	"TOSHKENT TOBACCO" MChJ	649,9
7	"SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI" MChJ	649,7
8	"BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI" MChJ	576,3
9	"NAVOIYAZOT" AJ	493,1
10	"O‘ZBEKGIDRO-ENERGO" AJ	388,3
11	"ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI" AJ	383,4
12	"INTERNATIONAL BEVERAGES TASHKENT" MChJ XK	367,1
13	"NAVOIY ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	279,1
14	"O‘ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	228,3
15	"UZBEKISTAN GTL" MChJ	209,0
16	"TOSHKENT ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	205,5
17	"ADM JIZZAKH" MChJ	194,1
18	"O‘ZBEKKO‘MIR" AJ	189,3
19	"O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ	185,0
20	"TAXIATOSH ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	183,4

Таъсисчи
Давлат активларини бошқариш агентлиги
“Бизнес-Daily Медиа”
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир
У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун
Тел.: +998 (99) 353-55-54
E-mail: biznesdm 2020@gmail.com
Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

Газета текин тарқатилади

telegram
BIZNES DAILY BIRJA